


## Korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) (2019 yil 1 fevral holatiga)

2019 yilning yanvar oyida Jizzax viloyatida 665 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 338 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2405 ta (19,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14856 tani tashkil etgan.



*Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2336	2199	58
	Sanoat	2471	2368	99
	Qurilish	1451	1405	50
	Savdo	3183	3005	370
	Tashish va saqlash	546	523	12
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1036	980	27
	Axborot va aloqa	192	169	1
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	212	209	5
	Boshqa turlari	4149	3998	43




**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

2019 yilning 1 fevral holatiga 15576 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lub, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,4 % savdo, 15,9 % sanoat, 15,0 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 9,3 % qurilish, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

1-diagramma

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning o'sishi, foizda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4814 ta), Sharof Rashidov (2537 ta), Zomin (1271 ta) va G'allaorol (1172 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Yangiobod (334 ta), Zafarobod (435 ta) hamda Arnasoy (456 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**

01.02.2017 yil

11982

01.02.2018 yil

13139

01.02.2019 yil

15576




### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **14856** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2405 ta (18,5 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,2 % savdo faoliyati, 15,9 % sanoat sohasi, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,5 % qurilish, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,5 % tashish va saqlash sohasi, 1,4 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 1,1 % axborot va aloqa sohasi va 27,0 % esa boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2-diagramma  
**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4591 ta), Sharof Rashidov (2482 ta), Zomin (1195 ta), G'allaorol (1169 ta) va Forish (1035 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Yangiobod (326 ta), Zafarobod (377 ta) hamda Arnasoy (456 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

3-diagramma

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona  
va tashkilotlar ulushi, foizda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar  
kesimida soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda**

| 01.02.2017 y. |

- 10873 ta

| 01.02.2018 y. |

- 12451 ta

| 01.02.2019 y. |

- 14856 ta




## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar oyida 665 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 2 martaga ko`pdir. Eng ko`p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Jizzax shahri (235 ta), Sharof Rashidov (128 ta), Zomin (63 ta) va G`allaorol (44 ta) tumanlari hissasiga to`gri keladi. Aksincha Zafarobod (7 ta), Yangiobod (10 ta) hamda Arnasoy (16 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

4-diagramma

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (370 ta), sanoat (99 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (58 ta) va qurilish (50 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (1 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (5 ta) hamda tashish va saqlash (12 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

1-jadval

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Jizzax viloyati bo'yicha jami</b>	<b>186</b>	<b>100</b>	<b>327</b>	<b>100</b>	<b>665</b>	<b>100</b>
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	62	33,3	57	17,4	58	8,7
Sanoat	39	21,0	45	13,8	99	14,9
Savdo	28	15,1	33	10,1	370	55,6
Qurilish	16	8,6	24	7,3	50	7,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16	8,6	16	4,9	27	4,1
Tashish va saqlash	5	2,7	5	1,5	12	1,8
Axborot va aloqa	4	2,2	3	0,9	1	0,2
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	3	0,9	5	0,8
Boshqa turlari	16	8,5	141	43,2	43	6,4

5-diagramma

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi o'sishi, foizda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar  
kesimida soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda**






## ❖ Tijorat korxonalarini (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 fevral holatiga viloyatda 11850 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3993 ta, oilaviy korxonalar – 546 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 6980 ta va boshqaar shakldagilar 331 tani tashkil etgan.

6-diagramma

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining ulushi, foizda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




## ❖ Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 128 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 43 taga yoki 50,6 % ga o’sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog’iston Respublikasi hissalariga to’g’ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 94 tasi qo'shma korxonalar, 34 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

7-diagramma

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahar (61 ta yoki jamidagi ulushi 47,7 %), Zomin (11 ta yoki 8,6 %), Forish (10 ta yoki 7,8 %) va G'allaorol tumanlari (9 ta yoki 7,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirzacho'l (1 ta yoki 0,8 %), Arnasoy (2 ta yoki 1,6 %), Baxmal va Zarbdor tumanlari (3 ta yoki 2,3 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lган ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 72 tani (56,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 20 tani (15,6 %), savdoda 17 tani (13,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 tani (3,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 2 tani (1,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tani

(2,3 %), tashish va saqlashda 4 tani (3,1 %) va qurilishda 5 tani (3,9 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat turiga to'gri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar, axborot va aloqa hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat turlariga to'gri keladi.

8-diagramma

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 5 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Rossiya Federatsiyasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta va Quvayt davlati – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

9-diagramma

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %**


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (2 ta), qurilishda (1 ta), tashish va saqlashda (1 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar turlari (1 ta) hissasiga to'gri keladi.

2-jadval

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**


	2018 yil yanvar oyida		2019 yil yanvar oyida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	1	33,4	2	40,0
Qurilish	1	33,3	1	20,0
Savdo	1	33,3	x	x
Tashish va saqlash	x	x	1	20,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	20,0



### Kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 fevral holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11810 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevral holatiga qaraganda 22,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 3895 tasi (33,0 %) Jizzax shahri, 2160 tasi (18,3 %) Sharof Rashidov, 908 tasi (7,7 %) G'allaorol hamda 887 tasi (7,5 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), % da




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11810 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2996 tasi (25,4 %) – savdo, 2347 tasi (19,9 %) - sanoat, 2165 tasi (18,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1402 tasi (11,9 %) - qurilish, 978 tasi (8,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 520 tasi (4,4 %) - tashish va saqlash, 151 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 139 tasi (1,2 %) - sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1112 tasi (9,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'riniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

10-diagramma


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %**



2019 yil yanvar oyida 642 dan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (228 ta), Sharof Rashidov (123 ta), Zomin (61 ta) va G'allaorol tumanlari (43 ta) hissasiga to'gri keladi. Eng kam Zafarobod (7 ta), Yangiobod (10 ta) hamda Arnasoy (16 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

11-diagramma

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (370 ta), sanoatda (97 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (57 ta), qurilishda (50 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi (27 ta ) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta) hamda tashish va saqlashda (12 ta) tashkil etilgan.



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 573 tasi tashkil etib, ulardan 546 tasi yoki 95,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'ssatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 47,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'ssatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,2 % yoki 225 tasi sanoat, 24,7 % yoki 135 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,5 % yoki 90 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,1 % yoki 55 tasi savdo, 0,9 % yoki 5 tasi qurilish, 0,4 % yoki 2 tasi

axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, hamda 5,9 % yoki 30 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

12-diagramma

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.